



Ta'limni rivojlantirish  
respublika ilmiy-metodik  
markazi

# ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI ZAMONAVIY VOSITALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

IMOMOVA HULKAR BEGIMOVNA



## MUAMMO VA MAQSAD

**Muammo:** Bugungi kunda o'quvchilarning axborot oqimidan to'g'ri foydalanish, o'qilgan badiiy matnni chuqur tahlil qilish va o'z fikrlarini yozma ravishda tizimli bayon etish ko'nikmalarida uzilishlarning kuzatilishi

**Maqsad:** Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy ilg'or texnologiyalar va pedagogik metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini yuksaltirish hamda yozish kompetensiyalarini rivojlantirish



# Mustaqil o'qish uchun zamonaviy vositalar




## **Audiokitob va podkastlar:**

Matnni ham eshitish, ham o'qish orqali xotirani kuchaytirish



QR kodli kutubxonalar: Maktab yo'laklarida yoki darsliklarda asarning to'liq variantiga o'tish imkoniyati



Interaktiv testlar: Kahoot yoki Quizizz orqali o'qilgan asarlar yuzasida musobaqalar o'tkazish



# MUSTAQIL YOZISH USULLARI



## 01. **BLOG YURITISH:**

O'quvchilarda Telegram yoki maxsus platformalarda „Adabiy tahlilchi” blogini ochishni tavsiya berish

## 02. **Storytelling(Raqamli hikoyachilik):**

Canva yoki Prezi yordamida asar syujetini vizuallashtirish

## 03. **E-portfolio:**

O'quvchining yil davomida yozgan eng yaxshi insho va ishlarini elektron to'plash

# Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ asari asosida podkast tayyorlash usullari



## INTERVYU

Boshlovchi va omon qolgan qaramon va (o'quvchi ijrosida) o'rtasidagi suhbat



## MONOLOG

Qahramonning ichki kechinmalari hayot va o'lim o'rtasidagi o'ylari



## ADABIY TAHLIL


Ikki o'quvchining asardagi, „Ayiqlar bilan kurash“ yoki „Inson irodasi“ mavzusidagi bahs-munozarasi



# PODKAST UCHUN MATN NAMUNASI


(Sokin, ammo og'ir nafas olish tovushi ostida o'qiladi)

"Bill... u meni tashlab ketdi. Mana shu sovuq, jonsiz cho'llar o'rtasida oyoqlarim endi mening itoatimda emas. Ular shunchaki ikki bo'lak go'sht va suyak... Barmoqlarim qonayapti, tizzalarim yerga yopishib qolgandek. Lekin ichimda bir narsa bor... u ochlikdan ham, sovuqdan ham kuchliroq. Bu — Yashashga bo'lgan tashnalik. Anavi och bo'ri... u mening o'lishimni kutyapti. Uning xirillashi qulog'im ostida. U kutyapti, men esa emaklayapman. Har bir qarich yer — men uchun bitta jang. Men oltinlarimni tashlab yubordim, chunki ular og'irlik qildi. Men hamma narsamdan voz kechdim, lekin o'zimdan voz kechmayman! Inson nima o'zi? Shunchaki o'ljami? Yo'q! Inson — bu oxirigacha kurashadigan iroda. Agar tishlarim bilan bo'lsa ham, o'sha bo'rining bo'g'zidan tishlayman. Men o'lmasligim kerak... Men yashashim kerak! Chunki hayot — bu men yengib o'tishim shart bo'lgan eng buyuk sinovdir."



# SUN'IY INTELLEKT (AI) BILAN ISHLASH

- 01 AL( masalan Chat GPT) bilan muloqot orqali asar qahramonlariga savol berish.
- 02 O'qilgan badiiy asarning qahramonini o'zining tasavvurlarini ifodalab AI yordamida obrazni yaratish va uni mavjud suratlar bilan taqqoslab xulosa chiqarish



Sun'iy intellekt **“Gemeni”**  
yordamida o'quvchilar tomonidan  
yaratilgan Mirkomilboyning qiyofasi  
(8-sinf Adabiyot darsligi)



## O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLAR

- |    |  |
|----|--|
| 01 | <b>BOOKSTAGRAM LOYIHASI:</b> O'quvchilardaga o'qigan kitobi haqida, estetik va kreativ taqriz yozib, ijtimoiy tarmoq formatida(rasm+matn) taqdim etish topshirig'ini berish                                    |
| 02 | <b>“Fan-fikshn” (Fanfiction):</b> Mashhur asar yakunini zamonaviy texnologiyalar yordamida o'zgartirib yozish. Masalan: „Agar „O'tkan kunlar“qahramonlarida mobil telefon bo'lganida syujet qanday o'zgaradi?“ |
| 03 | <b>Wiki-lug'at:</b> Sinf bo'lib onlayn platformada (masalan, Googl Docs)asardagi arxaik va shevaga xos so'zlarning interaktiv lug'atini yaratish.  |

## TAVSIYA ETILADIGAN PLATFORMALAR

VOSITA	MAQSADI
Padlet	Virtual doska: fikrlar almashish va yozma ishlarni e'lon qilish
Canva	Infografika va asar muqovalarini dizayn qilish
Wordwall	Til qoidalarini o'qish orqali mustahkamlash
Google Docs	Bir vaqtning o'zida jamoaviy matn yozish va tahrirlash



# ADABIY LABORATORIYA

**ADABIY LABORATORIYA** –bu o‘quvchilarning nafaqat matnni o‘qishi, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va ijodiy yondashuvi orqali “jonlantirish” jarayonidir. Bu usul darsni an’anaviy ma’ruzadan qiziqarli tadqiqot maydoniga aylantiradi.



## Antuan de Sent Ekzyuperining „Kichkina Shahzoda“ asari asosida adabiy laboratoriya o‘tkazish rejasi

1-bosqich “RAMZLAR MIKROSKOPI”. O‘quvchilarga asardagi asosiy timsollar yozilgan kartochkalra tarqatiladi. Ularning vazifasi – bu timsol ortida qanday insoniy xislat yashiringanini “kashf qilish”.

<b>OBRAZ/RAMZ</b>	<b>Laboratoriya xulosasi(Ma’nosi)</b>
Feruza gul	Mag‘rurlik,noziklik va chin muhabbat
Tulki	Do‘stlik, mas’uliyat (o‘rgatilganlar uchun javobgarlik)
Baobablar	Inson qalbidagi yomon odatlar(vaqtida Idizi bilan sug‘urish kerak)

# Antuan de Sent Ekzyuperining „Kichkina Shahzoda“ asari asosida adabiy laboratoriya o‘tkazish rejasi

## 1-bosqich. MATN INTERVYUSI.(PODKAST).

O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi: Jurnalistlar va Yozuvchilar/ Qahramonlar

**VAZIFA:** Asardagi ziddiyatli vazifa bo‘yicha qahramondan intervyu olish. Masalan, nima uchun u aynan shu qarorga keldi?

**Natija:** Audio yozuv yoki sinf oldida jonli chiqish. Bu o‘quvchining nutq madaniyatini va mantiqiy fikrlashini o‘stiradi.



# Antuan de Sent Ekzyuperining “Kichkina Shahzoda” asari asosida adabiy laboratoriya o‘tkazish rejasi

**2-bosqich.** 8-sayyora loyihasi. Kichkina shahzoda 7 ta sayyorada bo‘ldi.(Qirol, Shuhratparast ,Piyonista, Korchalon ,Chirog‘bon, Jug‘ofiy olim va Yer)

**VAZIFA:** O‘quvchilar guruhlarda “8-sayyora”ni o‘ylab topishlari kerak.

**Savol:** Bu sayyorada kim yashaydi? U qaysi zamonaviy illatni (masalan, “Gadgetlarga bog‘lanib qolish” yoki “Faqat pul sanash”)aks ettiradi?

**Natija:** Sayyoraning chizmasi va undagi qahramonlarning qisqa monologi.



# Antuan de Sent Ekzyuperining „Kichkina Shahzoda“ asari asosida adabiy laboratoriya o‘tkazish rejasi


## **3-bosqich.** “Yurak ko‘zi bilan ko‘rish”

Asardagi eng mashhur iqtibos: *“Eng asosiy narsani ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi, uni faqat qalb bilan his qilish mumkin”.*


**Eksperiment:** O‘quvchilarga yopiq qutida biron buyum beriladi. Ular ko‘zini yumib, unga teginishi orqali uning mohiyatini (uning shaklini emas, hissin) tasvirlashlari kerak .

**Xulosa:** Nima uchun biz odamlarni tashqi ko‘rinishiga qarab baholaymiz?

Shahzoda nega feruza gulini boshqalardan ustun ko‘rdi?



"My drawing was not a picture of a hat.  
It was a picture of a boa constrictor digesting an elephant."



# Antuan de Sent Ekzyuperining “Kichkina Shahzoda” asari asosida adabiy laboratoriya o‘tkazish rejasi

## 4-bosqich. “Ekzyuperiga maktub”

**VAZIFA:** O‘quvchilar laboratoriyaning yakuni sifatida asar muallifiga yoki Kichkina shahzodaga 3 jumlati xat yozishadi.

1. Men o‘rgangan eng muhim dars...
2. Mening sayyoramda baobablar o‘rniga...
3. Sening tulkidan o‘rganganlaring menga...



## XULOSA

Biz o'quvchilarni shunchaki matn o'qishga majburlamasligimiz kerak. Ularga asar qahramonlari bilan birga nafas olishni, raqamli dunyoda ijod qilishni o'rgatishimiz shart. **Zero, metodi o'zgarmagan o'qituvchining, natijasi ham o'zgarmaydi.**

Vazifamiz - o'quvchi qalbidagi kitobga bo'lgan "eski" muhabbatni "yangi" usulda uyg'otish.



**E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!**

